

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

DJUMAYOZOV UMIDJON ZAFARJONOVICH

**ELASTIKLIK NAZARIYASINING CHIZIQLI VA NOCHIZIQLI
CHEGARAVIY MASALALARINI SONLI MODELLASHTIRISH**

05.01.07-Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on physical-mathematical sciences**

Djumayozov Umidjon Zafarjonovich

Elastiklik nazariyasining chiziqli va nochiziqli chegaraviy masalalarini sonli modellashtirish.....3

Джумаёзов Умиджон Зафаржонович

Численное моделирование линейных и нелинейных краевых задач теории упругости21

Djumayozov Umidjon Zafarjonovich

Numerical simulation of linear and nonlinear boundary value problems in the theory of elasticity.....40

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

DJUMAYOZOV UMIDJON ZAFARJONOVICH

**ELASTIKLIK NAZARIYASINING CHIZIQLI VA NOCHIZIQLI
CHEGARAVIY MASALALARINI SONLI MODELLASHTIRISH**

05.01.07-Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.2.PhD/FM740 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (annotatsiya)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ik-fizmat.nuu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy raxbar:

Xaldjigitov Abduvali Abdisamadovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Normurodov Chori Begaliyevich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Bo'riyev Abdulaziz Tadjibayevich
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi Davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashining 2023 yil «__» _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz.)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (__ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.M. Aripov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

Z.R. Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d.

B.F. Abduraximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida fan va texnika sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar, aksariyat hollarda konstruksiyalar va ular elementlarining mustahkamlik va ishonchlilik zahiralarini samarali aniqlash maqsadida, jismlarning deformatsiyalanish jarayonini matematik va sonli modellashtirishga keltiriladi. Ushbu matematik va sonli modellar amaliy matematika, matematik modellashtirish va amaliy mexanikaning o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Odatda jismlarning deformatsiyalanish jarayoni giperbolik tipga kiruvchi xususiy hosilali chiziqli va nochiziqli differensial tenglamalar bilan ifodalanadi. Shu sababli, tenglamalarni sonli modellashtirishda oshkor va oshkormas sxemalar asosida chekli-ayirmali tenglamalarni qurish, samarali algoritmlar va ob'ektga yo'naltirilgan texnologiyalari asosida dasturiy ta'minot yaratish matematik modellashtirishning muhim vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda.

Hozirgi kunda jahon miqyosida, turli ob'ektlar va ular qismlarining mustahkamlik zahiralarini aniqlashda, odatiy ko'chish funksiyalaridan tashqari kuchlanish va deformatsiyalarga asoslangan matematik modellarni qurish keng tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, deformatsiyalarga asoslangan modellarga, u samarali bo'lganligi uchun, oxirgi paytlarda olimlar tomonidan alohida e'tiborga zasavor bo'lmoqda. Shu sababli, ob'etlarning mustahkamlik va ishonchlilik zahiralarini aniqlashda, deformatsiyalarga asoslangan matematik va sonli modellarni qurish, samarali va qulay interfaysga ega bo'lgan dasturlar majmuasini yaratish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlar va axborot texnologiyalari doirasida matematika, amaliy matematika va matematik modellashtirish hamda sonli modellashtirishning rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, chiziqli va nochiziqli deformatsiyalanish jarayonlarini matematik va sonli modellashtirish, hamda chekli-ayirmali usul, oshkor va oshkormas sxemalar, ketma-ket yaqinlashish usullarini takomillashtirish bo'yicha salmoqli natijalarga erishildi. "Matematika-fizika, amaliy matematika va matematik modellashtirish" fanining muhim yo'nalishlari bo'yicha xalqaro miqyosda ilmiy tadqiqotlar olib borish fundamental tadqiqotlarning asosiy vazifasi sifatida alohida belgilangan¹. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash doirasida qattiq jismlarning deformatsiyalanish jarayonini matematik va sonli modellashtirish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi. Qaror ijrosini ta'minlashda deformatsiyalarga asoslangan matematik va sonli modellarni qurish va samarali dasturiy ta'minot muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyatini, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-son

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-son qarori.

“Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 24-may kuni O‘zbekiston Milliy universitetida ta‘lim va ilm-fan sohasi vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasi hamda ushbu sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning bajarilishiga mazkur dissertasiya ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalar rivojlanishining IV “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Odatda, qattiq jismlarning deformatsiyalanish jarayonini, ko‘chishlarga nisbatan yozilgan Lamé differensial tenglamalari yordamida modellashtirilishi mumkin. Zarur deformatsiya va kuchlanishlar Koshi munosabatlari va Guk qonuni yordamida ma‘lum ko‘chishlar bo‘yicha hisoblanishi mumkin. Odatda, elastiklik nazariyasining chiziqli va nochiziqli chegaraviy masalalarini sonli yechishda chekli-ayirmali variatsion usul, chekli elementlar usuli, chekli-ayirmali usul, chegaraviy elementlar usuli va boshqa usullar keng foydalaniladi. Ushbu usullarning asoslari O.Zenkevich, B.Pobedrya, V.Kabulov, T. Bo‘riyev, M. Mirsaidov, K. Sultonov, N. Molchanov, F. Badalov, M. Aripov, I. Mirzayev, R. Alov, N. Ravshanov, B. Qurmanboyev, A. Xaldjigitov, B. Xusanov, A. Abirov va boshqalarning ishlarida qaralgan. N.Novojilov, A.I.Luri, C.Miehe va boshqalarning ishlarda, chekli deformatsiyalarga nisbatan chegaraviy masalalar ko‘rilgan.

Qattiq jismlarning deformatsiyalanish jarayonini kuchlanishlarga nisbatan Beltrami-Mitchell tenglamalari yordamida ham modellashtirish mumkin. Kuchlanishlarga nisbatan yangi turdagi model tenglamalar B.E.Pobedriyaning ishlarida taklif qilingan. Kuchlanishlarga nisbatan dinamik chegaraviy masalalar Konovalov va boshqalarning ishlarida ko‘rib chiqilgan. Deformatsiyalarga nisbatan model tenglamalarni yaratish qattiq jismlar mexanikasining va matematik modellashtirishning muhim va kam o‘rganilgan sohalaridan biri hisoblanadi. Novatskiyning ishida deformatsiyalarga nisbatan model tenglama Lamé tenglamasi yordamida keltirib chiqarilgan. B.E.Pobedriya va N.M.Borodachevlarning ishlari deformatsiyalarning model tenglamalarini o‘rganish va ishlab chiqishga bag‘ishlangan.

Umumiy holda deformatsiyalanish jarayonini tavsiflovchi model tenglamalarni deformatsiyalarga nisbatan oltita differensial va uchta muvozanat tenglamalari sistemasi va mos chegaraviy shartlar sifatida yozish mumkin. Bunda, yetmayotgan chegaraviy shartlar sifatida, muvozanat tenglamalarini berilgan sohaning chegarasida qarash mumkin. Shunday qilib, qattiq jismlarning deformatsiyalanish jarayonini ko‘chish va deformatsiyalarga nisbatan matematik va sonli modellashtirish mexanika va amaliy matematikaning muhim va dolzarb vazifasi hisoblanadi. Mazkur ish, qattiq jismlarning deformatsiyalanish jarayonini ko‘chish va deformatsiyalarga nisbatan ifodalaydigan chiziqli va nochiziqli matematik va sonli modellarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti "Amaliy matematika masalalarini yechishning algoritmlari va dasturiy ta'minoti" ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi deformatsiyalanish jarayonini ifodalaydigan chiziqli va nochiziqli matematik modellarni takomillashtirish, sonli modellar qurish va samarali algoritmlar asosida dasturlar majmuasini yaratishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

ko'chishlarga nisbatan chiziqli va nochiziqli deformatsiyalanish jarayonining sonli modellarini qurish;

deformatsiyalarga nisbatan chiziqli chegaraviy masalalarning matematik va sonli modellarini qurish;

ko'chish va deformatsiyalar bo'yicha chiziqli va nochiziqli chegaraviy masalalar uchun diskret tenglamalarni ishlab chiqish;

ko'chishlar va deformatsiyalar bo'yicha chiziqli va nochiziqli chegaraviy masalalarni yechishning sonli usulini taklif qilish;

qattiq jismlarning chiziqli va nochiziqli deformatsiyalanish jarayonini tavsiflovchi chegaraviy masalalarni sonli yechishning samarali algoritmlari va dasturiy ta'minotini ishlab chiqish;

izotrop sterjen, to'rtburchakli plastina va parallelepipedlar uchun, ko'chish va deformatsiyalariga nisbatan qo'yilgan chegaraviy masalalarni sonli yechish.

Tadqiqotning ob'ekti chiziqli va nochiziqli deformatsiyalanish holatida bo'lgan izotrop jismlarning kichik va chekli deformatsiyalanish jarayonidir.

Tadqiqotning predmeti izotrop jismlarning chiziqli va nochiziqli deformatsiyalanish jarayonining ko'chish va deformatsiyalarga nisbatan matematik va sonli modellaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida sonli modellashtirish usullari, chekli-ayirmali sxemalar, iterativ usullar, progonka usuli, ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash texnologiyalari, shuningdek, hisoblash eksperimenti usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

elastiklik nazariyasining chegaraviy masalalari uchun Sen-Venanning deformatsiyalarning birgalikda bo'lish shartiga asoslangan holda deformatsiyalarga nisbatan yangi modeli taklif etilgan;

ko'chish va deformatsiyalarga nisbatan chekli-ayirmali tenglamalar ishlab chiqilgan, hamda elastiklik nazariyasining chiziqli va nochiziqli chegaraviy masalalarini oddiy iteratsiya va Zeydel usullari yordamida samarali sonli yechish taklif etilgan;

turli issiqlik va mexanik chegaraviy shartlarda izotrop parallelepiped, to'g'ri to'rtburchak va sterjen uchun ko'chishlar va deformatsiyalarga nisbatan chegaraviy masalalar sonli yechilgan;

chiziqli va nochiziqli to'rt tenglamalarni sonli yechishning algoritmi va dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ob'ektlarning (konstruksiyalar va ular elementlari) mustahkamlik zahiralari samarali aniqlashda imkon beradigan matematik model yaratilgan;

jismlarda ko'chish, kuchlanish va deformatsiyalar tarqalishini o'rganishga imkon beradigan dasturlar majmuasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik masalalar qo'yilishining qat'iyiligi, sonli natijalarning aniq yechim va ma'lum yechimlar bilan taqqoslanganligi, shuningdek, hisoblash tajribalarini o'tkazish orqali ta'minlagan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati jismlarning mustahkamlik zahiralari yanada ishonchliroq aniqlashga imkon beradigan matematik model yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sonli modellar qurish, va ularni sonli yechish algoritmi va dasturlar majmuasini yaratish, xamda ob'ektlarning mustahkamlik zahiralari samaraliroq aniqlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jismlarning chiziqli va nochiziqli deformatsiyalanish jarayonini ifodalash uchun ishlab chiqilgan matematik modellar, sonli algoritmlar va dasturiy ta'minotlar quyidagi yo'nalishlarda amaliyotga joriy etilgan:

qattiq jismlarning deformatsiyalanish jarayonini ko'chish va deformatsiyalarga nisbatan ifodalaydigan chiziqli va nochiziqli matematik modeli va sonli yechimlaridan BV-F4-014 "Magnit-elastiklikning matematik asoslarini va elektromagnit moslashuvchanlikni hisobga olgan holda elektron qurilmalar, mikro va nano-tizimlarning yupqa qobiqli elementlarining magnit-elastik tebranishlari masalasini yechishning amaliy usullarini takomillashtirish" grant loyihasida yupqa qobiqli elektron qurilmalarning elektromagnit maydonidagi tebranishi masalasini ko'chish va deformatsiyalarga nisbatan sonli modellashtirishda foydalanilgan (Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 2022 yil 8-iyundagi 2562/15-01-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarni qo'llash, nostatsionar magnit va mexanik kuchlar ta'sirida o'tkazuvchi jismlarning magnit elastikligining bog'liq masalalarini sonli yechish imkonini bergan;

elastiklik nazariyasining ko'chish va deformatsiyalarga nisbatan chiziqli va nochiziqli modellarini sonli yechish algoritmlari, dasturiy ta'minotidan qurilish tashkilotlarida binolarni loyihalashda, mustahkamlik va ishonchlilik zaxiralari aniqlashda foydalanilgan. (Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining 2022 yil 21-noyabrdagi 33-8/7839-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarni qo'llash, mehnat unumdorligini 10-15 foizga oshirishga, tannarxni 10-15 foizga kamaytirishga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan 3 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 20 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari sosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan 7 ta xorijiy (barchasi

SCOPUS ma'lumotlar bazasida) va 6 ta respublika jurnallarida nashr etilgan, 2 ta EHM uchun dasturiy mahsulotga guvohnoma olingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 97 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligini belgilangan. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarga sharh berilgan va muammoning o'rganilganlik darajasi muhokama qilingan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari taqdim etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Deformatsiya jarayonining chiziqli va nochiziqli model tenglamalari”** nomli birinchi bobi qattiq jismlarning ko'chish va deformatsiyalarga nisbatan chiziqli va nochiziqli deformatsiyalanish jarayonini tavsiflovchi model tenglamalarini shakllantirishga bag'ishlangan.

1.1 paragrafda deformatsiyalanish jarayonining ko'chishlarga nisbatan chiziqli model tenglamalari ko'rib chiqilgan.

Odatda, qattiq jismlarning chiziqli deformatsiyalanish jarayonini tavsiflovchi model tenglamalari quyidagilardan iborat:
muvozanat tenglamasi

$$\sum_{j=1}^3 \sigma_{ij,j} + X_i = 0, \quad x_i \in V, \quad i = 1, 2, 3. \quad (1)$$

Guk qonuni

$$\sigma_{ij} = \lambda \theta \delta_{ij} + 2\mu \varepsilon_{ij}, \quad (2)$$

Koshi munosabati

$$\varepsilon_{ij} = \frac{1}{2} \left(\frac{\partial u_i}{\partial x_j} + \frac{\partial u_j}{\partial x_i} \right), \quad (3)$$

va chegaraviy shartlar

$$u_i|_{\Sigma_1} = u_i^o, \quad x_i \in \Sigma_1, \quad \sum_{j=1}^3 \sigma_{ij} n_j|_{\Sigma_2} = S_i^o, \quad x_i \in \Sigma_2. \quad (4)$$

Bu yerda σ_{ij} – kuchlanish tenzori, ε_{ij} – deformatsiyalar tenzori, u_i – ko'chish vektori, X_i – xajmiy kuchlar, λ, μ – Lamé o'zgarmlari, $\theta = \varepsilon_{11} + \varepsilon_{22} + \varepsilon_{33}$ kuchlanish tenzorining sferik qismi, δ_{ij} – Kronecker simvoli, n_j – sirtga o'tkazilgan tashqi normal, $\Sigma_1, \Sigma_2, \Sigma_3$ – sirt kuchi vektorining komponentlari.

(3) tenglamani (2) ga qo'yib va olingan natijalarni (1) tenglamaga quysak Lamé tenglamasi hosil bo'ladi

$$\mu \nabla^2 u_i + (\lambda + \mu) \frac{\partial \theta}{\partial x_i} + X_i = 0, \quad i = 1, 2, 3. \quad (5)$$

Δ – Laplas operatori. $x_1 = x, x_2 = y, x_3 = z, u_1 = u, u_2 = v, u_3 = w$, belgilashlarni olib Lamé tenglamasini (5) quyidagicha ko‘chishlarga nisbatan yozish mumkin

$$\begin{aligned} (\lambda + 2\mu) \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + \mu \left(\frac{\partial^2 u}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 u}{\partial z^2} \right) + (\lambda + \mu) \left(\frac{\partial^2 v}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 w}{\partial x \partial z} \right) + X_1 &= 0, \\ (\lambda + 2\mu) \frac{\partial^2 v}{\partial y^2} + \mu \left(\frac{\partial^2 y}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 y}{\partial z^2} \right) + (\lambda + \mu) \left(\frac{\partial^2 u}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 w}{\partial y \partial z} \right) + X_2 &= 0, \\ (\lambda + 2\mu) \frac{\partial^2 w}{\partial z^2} + \mu \left(\frac{\partial^2 w}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 w}{\partial y^2} \right) + (\lambda + \mu) \left(\frac{\partial^2 u}{\partial x \partial z} + \frac{\partial^2 v}{\partial y \partial z} \right) + X_3 &= 0. \end{aligned} \quad (6)$$

Agar (2) tenglama o‘rniga haroratni hisobga olgan holda kuchlanish va deformatsiyalar o‘rtasidagi munosabatni ifodalovchi Dyugamel-Neyman belgilovchi munosabatni qarash, ya’ni

$$\sigma_{ij} = \lambda \theta \delta_{ij} + 2\mu \varepsilon_{ij} - (3\lambda + 2\mu) \alpha (T - T_0) \delta_{ij}, \quad (7)$$

u holda, termoelastik masalasining (6) tenglamalarida quyidagi xajmiy kuch quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi, ya’ni

$$X_i = \alpha \gamma \frac{\partial T}{\partial x_i}, \quad (8)$$

bu yerda $\gamma = (3\lambda + 2\mu)\alpha$, T – harorat, T_0 – boshlang‘ich harorat, α – termal kengayish koeffitsienti.

1.2 paragrafda deformatsiyalar uchun nochiziqli model tenglamalar qarab chiqilgan: agar (1-4) chegaraviy masalada, (2) munosabat o‘rniga, quyidagi nochiziqli munosabatni-Ilyushinning plastiklik deformatsion nazariyasini qarash, ya’ni

$$\sigma_{ij} = \lambda \theta \delta_{ij} + 2\mu \varepsilon_{ij} - \alpha \gamma (T - T_0) \delta_{ij} - 2(\mu - \mu') \left(1 - \frac{\varepsilon_u^*}{\varepsilon_u} \right) e_{ij}, \quad \varepsilon_u \geq \varepsilon_u^* \quad (9)$$

u holda (6) tenglamadagi xajmiy kuchlar quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi

$$X_i = -\alpha \gamma \frac{\partial T}{\partial x_i} - P_i, \quad P_i = 2(\mu - \mu') \sum_{j=1}^3 \frac{\partial e_{ij}}{\partial x_j}, \quad \varepsilon_u \geq \varepsilon_u^* \quad (10)$$

bu yerda ε_u – kuchlanish tenzorining intensivligi, e_{ij} – kuchlanish tenzor deviatori, μ' – urinma modul, P_i – plastik qismlarni ifodalaydi.

1.3 paragraf chekli deformatsiyalar uchun elastiklik nazariyasining chegaraviy masalalarini shakllantirishga bag‘ishlangan va quyidagilardan iborat: muvozanat tenglamasi

$$\sum_{j=1}^3 P_{ij,j} + X_i = 0, \quad \text{bu yerda } P_{ij} = \left(\delta_{ik} + \frac{\partial u_i}{\partial x_k} \right) S_{kj}, \quad (11)$$

Sen-Venant-Kirxhoff qonuni

$$S_{ij} = \lambda E_{kk} \delta_{ij} + 2\mu E_{ij}, \quad E_{kk} = E_{11} + E_{22} + E_{33}, \quad (12)$$

Koshi-Grin kuchlanish tenzori

$$E_{ij} = \frac{1}{2} (u_{i,j} + u_{j,i} + \sum_{k=1}^3 u_{k,i} u_{k,j}), \quad (13)$$

va mos chegaraviy shartlar

$$u_i|_{\Sigma_1} = u_i^0, \quad \sum_{j=1}^3 S_{ij} n_j|_{\Sigma_2} = S_i^0. \quad (14)$$

1.4 paragraf deformatsiyalar uchun yangi model tenglamasini ishlab chiqishga bag'ishlangan, ya'ni

$$\mu \nabla^2 \varepsilon_{ij} + (\lambda + \mu) \theta_{,ij} + \frac{1}{2} (X_{i,j} + X_{j,i}) = 0, \quad (15)$$

deformatsiyalarga nisbatan ifodalangan muvozanat tenglamasi

$$\lambda \theta_{,i} + 2\mu \varepsilon_{ij,j} + X_i = 0, \quad (16)$$

va quyidagi chegaraviy shartlar bilan birga

$$(\lambda \theta \delta_{ij} + 2\mu \varepsilon_{ij}) n_j|_{\Sigma} = S_i, \quad (\lambda \theta_{,i} + 2\mu \varepsilon_{ij,j} + X_i)|_{\Sigma} = 0. \quad (17)$$

elastiklik nazariyasining deformatsiyalarga nisbatan yangi chegaraviy masalasini tashkil qiladi.

(15-17) model tenglamalarni ikki o'lchovli holatda ε_{11} , ε_{22} , ε_{12} larga nisbatan quyidagi ko'rinishda yozib olish mumkin:

$$\begin{aligned} (\lambda + 2\mu) \frac{\partial \varepsilon_{11}}{\partial x} + \lambda \frac{\partial \varepsilon_{22}}{\partial x} + 2\mu \frac{\partial \varepsilon_{12}}{\partial y} = 0, \quad (\lambda + 2\mu) \frac{\partial \varepsilon_{22}}{\partial y} + \lambda \frac{\partial \varepsilon_{11}}{\partial y} + 2\mu \frac{\partial \varepsilon_{21}}{\partial x} = 0, \\ \mu \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{12}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{12}}{\partial y^2} \right) + (\lambda + \mu) \left(\frac{\partial^2 \varepsilon_{11}}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 \varepsilon_{22}}{\partial x \partial y} \right) = 0, \end{aligned} \quad (18)$$

mos chegaraviy shartlar

$$(\sigma_{11} n_1 + \sigma_{12} n_2)|_{\Gamma} = S_1, \quad (\sigma_{21} n_1 + \sigma_{22} n_2)|_{\Gamma} = S_2, \quad (19)$$

hamda qo'shimcha chegara shartlari bilan

$$\left[(\lambda + 2\mu) \frac{\partial \varepsilon_{11}}{\partial x} + \lambda \frac{\partial \varepsilon_{22}}{\partial x} + 2\mu \frac{\partial \varepsilon_{12}}{\partial y} \right]_{\Gamma} = 0, \quad \left[(\lambda + 2\mu) \frac{\partial \varepsilon_{22}}{\partial y} + \lambda \frac{\partial \varepsilon_{11}}{\partial y} + 2\mu \frac{\partial \varepsilon_{21}}{\partial x} \right]_{\Gamma} = 0. \quad (20)$$

bu yerda Γ – berilgan sohaning chegarasi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Sonli modellar va ularni yechish usullari**” ga bag'ishlangan. Ikki o'lchovli chiziqqli va nochiziqqli model tenglamalar uchun ko'chish va deformatsiyalarga nisbatan chekli-ayirma tenglamalar tuzilgan. Chekli - ayirmali tenglamalar va chegaraviy shartlar, tugun nuqtalariga nisbatan yechilgan shaklda yozilgan va iterativ usul qo'llanilgan.

2.1 paragrafda (6) model tenglamalar to'rtburchakli plastinka uchun qaralgan:

$$\begin{aligned} (\lambda + 2\mu) \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + (\lambda + \mu) \frac{\partial^2 v}{\partial x \partial y} + \mu \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} + X_1 = 0, \\ (\lambda + 2\mu) \frac{\partial^2 v}{\partial y^2} + (\lambda + \mu) \frac{\partial^2 u}{\partial x \partial y} + \mu \frac{\partial^2 v}{\partial x^2} + X_2 = 0, \end{aligned} \quad (21)$$

chegaraviy shartlar bilan

$$u_1|_{r_1} = u_1^0, \quad u_2|_{r_1} = u_2^0, \quad (\sigma_{11} n_1 + \sigma_{12} n_2)|_{r_2} = S_1, \quad (\sigma_{21} n_1 + \sigma_{22} n_2)|_{r_2} = S_2. \quad (22)$$

(21-22) chegaraviy masalani $0 \leq x \leq l_1$, $0 \leq y \leq l_2$ to'rtburchakli plastinka uchun ko'rib chiqamiz. (21) tenglamalardagi hosilalarni chekli-ayirmali munosabatlar bilan almashtirib, $k=0,1,2,\dots$ indekslarga muvofiq quyidagi iterativ jarayonni tashkil qilish mumkin

$$u_{i,j}^{(k+1)} = 4h_2^2(\lambda + 2\mu)(u_{i+1,j}^{(k)} + u_{i-1,j}^{(k)}) + 4h_1^2\mu(u_{i,j+1}^{(k)} + u_{i,j-1}^{(k)}) + hh_1h_2(\lambda + \mu) * \\ * (v_{i+1,j+1}^{(k)} - v_{i-1,j+1}^{(k)} - v_{i+1,j-1}^{(k)} + v_{i-1,j-1}^{(k)}) + X_1 / (8h_2^2(\lambda + 2\mu) + 8h_1^2\mu). \quad (23)$$

nolinchi $k=0$ yaqinlashganda, $u_{ij}^{(0)}$, $v_{ij}^{(0)}$ ko'chishlarning qiymatlari nolga teng deb hisoblanadi.

2.2 paragrafda tekis deformatsiyalanish holatida bo'lgan to'rtburchak uchun plastik va termoplastik chegaraviy masalalar qarab chiqilgan. Masalalarning sonli modellari ishlab chiqilgan. Chegaraviy masalalarni yechish uchun sonli algoritmlar va tegishli dasturlar ishlab chiqilgan.

2.3 paragrafda chekli deformatsiyalanish holadida bo'lgan izotrop to'rtburchakli plastinka uchun matematik va sonli modellar turli chegariy shartlar ko'rib chiqilgan. Elastiklik nazariyasining chekli deformatsiyali ikki o'lchovli chegaraviy masalalarini sonli yechish uchun nochiziqli chekli-ayirmali tenglamalar qurilgan. Chekli-ayirma tenglamalar u_{ij} , v_{ij} funksiyalariga nisbatan yozib olingan va ketma-ket yaqinlashish usulida sonli yechilgan.

Ikki o'lchovli holatda, chekli deformatsiyalardagi model tenglamalar quyidagi ko'rinishga ega

$$(\lambda + 2\mu + A_1(u)) \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + (\lambda + \mu + B_1(u)) \frac{\partial^2 v}{\partial x \partial y} + (\mu + C_1(u)) \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} + N_1(u) = 0, \\ (\lambda + 2\mu + A_2(u)) \frac{\partial^2 v}{\partial y^2} + (\lambda + \mu + B_2(u)) \frac{\partial^2 u}{\partial x \partial y} + (\mu + C_2(u)) \frac{\partial^2 v}{\partial x^2} + N_2(u) = 0. \quad (24)$$

bu yerda $A_1, B_1, C_1, N_1, A_2, B_2, C_2, N_2$ tenglamalarning nochiziqli qismlaridir.

2.4 paragraf elastiklik nazariyasining deformatsiyalarga nisbatan qo'yilgan chegaraviy masalasini sonli yechishga bag'ishlangan. To'rtburchakli plastinka uchun chegaraviy masala deformatsiyalarda ko'rib chiqilgan va to'r sohani qurish uchun $x_i = ih_1$ ($i=0, n$), $y_j = jh_2$ ($j=0, n$) parallel chiziqlarning o'tkazamiz, bu erda $h_k = l_k / N_k$, $k=1, 2$. U holda (19-20) chegaraviy masalaning diskret analogi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi

$$(\lambda + 2\mu) \frac{\varepsilon_{i+1,j}^{11} - \varepsilon_{ij}^{11}}{2h_1} + \lambda \frac{\varepsilon_{i+1,j}^{22} - \varepsilon_{i-1,j}^{22}}{2h_1} + 2\mu \frac{\varepsilon_{i,j+1}^{12} - \varepsilon_{i,j-1}^{12}}{2h_2} = 0, \quad (25)$$

$$(\lambda + 2\mu) \frac{\varepsilon_{ij}^{11} - \varepsilon_{i,j-1}^{11}}{2h_1} + \lambda \frac{\varepsilon_{i+1,j}^{22} - \varepsilon_{i-1,j}^{22}}{2h_1} + 2\mu \frac{\varepsilon_{i,j+1}^{12} - \varepsilon_{i,j-1}^{12}}{2h_2} = 0,$$

$$\frac{\varepsilon_{i+1,j}^{12} - 2\varepsilon_{i,j}^{12} + \varepsilon_{i-1,j}^{12}}{h_1^2} + K \frac{\varepsilon_{i+1,j+1}^{11} - \varepsilon_{i+1,j-1}^{11} - \varepsilon_{i-1,j+1}^{11} + \varepsilon_{i-1,j-1}^{11}}{4h_1h_2} +$$

$$+ \frac{\varepsilon_{i,j+1}^{12} - 2\varepsilon_{i,j}^{12} + \varepsilon_{i,j-1}^{12}}{h_2^2} + K \frac{\varepsilon_{i+1,j+1}^{22} - \varepsilon_{i+1,j-1}^{22} - \varepsilon_{i-1,j+1}^{22} + \varepsilon_{i-1,j-1}^{22}}{4h_1h_2} = 0, \quad (26)$$

chegaraviy shartlar

$$\varepsilon_{22 \ i0}^{(0)} = \frac{1}{E_1} \sigma_{22}, \quad \varepsilon_{12 \ i0}^{(0)} = 0, \quad \varepsilon_{22 \ iN_2}^{(0)} = -\frac{1}{E_1} \sigma_{22}, \quad \varepsilon_{12 \ iN_2}^{(0)} = 0, \quad (27)$$

$$\varepsilon_{11 \ 0j}^{(0)} = 0, \quad \varepsilon_{21 \ 0j}^{(0)} = 0, \quad \varepsilon_{11 \ N_1j}^{(0)} = 0, \quad \varepsilon_{21 \ N_1j}^{(0)} = 0,$$

va qo'shimcha chegaraviy shartlar esa quyidagi ko'rinishga ega:

$y=0$ va $y=l_2$

$$\varepsilon_{11\ i0}^{(0)} = \varepsilon_{11\ i1}^{(0)} + \frac{\mu h_2}{\lambda} \frac{\varepsilon_{12\ i+1,0}^{(0)} - \varepsilon_{12\ i-1,0}^{(0)}}{h_1}, \quad \varepsilon_{11\ iN_2}^{(0)} = \varepsilon_{11\ i,N_2-1}^{(0)} - \frac{\mu h_2}{\lambda} \frac{\varepsilon_{12\ i+1,N_2}^{(0)} - \varepsilon_{12\ i-1,N_2}^{(0)}}{h_1},$$

$x=0$ va $x=l_1$

$$\varepsilon_{22\ 0,j}^{(0)} = \varepsilon_{22\ 1,j}^{(0)} + \frac{\mu h_1}{\lambda} \frac{\varepsilon_{0,j+1}^{12} - \varepsilon_{0,j-1}^{12}}{h_2}, \quad \varepsilon_{22\ N_1,j}^{(0)} = \varepsilon_{22\ N_1-1,j}^{(0)} - \frac{\mu h_1}{\lambda} \frac{\varepsilon_{12\ N_1,j+1}^{(0)} - \varepsilon_{12\ N_1,j-1}^{(0)}}{h_2}. \quad (28)$$

Chekli-ayirmali tenglamalar ε_{ij}^{11} , ε_{ij}^{22} va ε_{ij}^{12} ga nisbatan iterativ usul yordamida yechilgan.


Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Deformatsiyalanish jarayonining model tenglamalarini sonli yechish misollari**” elastiklik nazariyasining ko‘chish va deformatsiyalarga nisbatan qo‘yilgan chiziqli va nochiziqli chegaraviy masalalarini sonli modellashtirishga bag‘ishlangan. To‘rtburchakli plastinka va parallelepiped uchun masalalar turli chegaraviy shartlarda qaralgan. Ishlab chiqilgan dasturiy ta‘minotdan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar keltirilgan.

3.1 paragrafda turli chegaraviy shartlarda elastik, termoelastik va termoplastik to‘rtburchakli plastinkaga oid masalalar yechilgan.

To‘rtburchakni cho‘zish masalasi. O‘lchamlari $(2a, 2b)$ bo‘lgan to‘rtburchakli plastinkaning OX o‘qiga perpendikulyar bo‘lgan qarama-qarshi tomonlariga qo‘yilgan cho‘zuvchi parabolik kuchlar ta‘siridagi deformatsiyalanishi masalasi qarab chiqilgan. Qolgan tomonlari erkin hisoblanadi:

$$x = \pm a: \sigma_{11} = S_0 \left(1 - \frac{y^2}{a^2}\right), \quad \sigma_{12} = 0, \quad (29)$$

$$y = \pm b: \sigma_{22} = 0, \quad \sigma_{21} = 0. \quad (30)$$



1-rasm. Parabolik kuch ta‘sirida to‘rtburchak plastinkaning cho‘zilishi

Bu masala ikkinchi bobda qayd etilgan (21) masala tenglamalari bilan modellashtirilgan. Bunda chegaraviy shartlar (29-30) ko‘rinishga ega bo‘ladi. Ushbu masalaga mos keladigan chekli-ayirmali sxema (23) tenglamalar bilan aniqlanadi. Chekli-ayirmali tenglamalar ko‘chishlarga nisbatan (23) ko‘rinishda yozilib iterativ usul bilan yechilgan.

Ko‘chishlarning sonli qiymatlari Guk qonuniga muvofiq hisoblangan, σ_{11} kuchlanishning qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan va Timoshenko-Guderning olgan natijasi bilan solishtirilgan.

1-jadval

$x=0$ da σ_{11}/S kuchlanish qiymatlarini solishtirish						
Natijalar	$x=0$	$x=0.1$	$x=0.2$	$x=0.3$	$x=0.4$	$x=0.5$

<i>Iteratsiya usuli (ko'chishlarda)</i>	0.3202	0.4423	0.5899	0.7235	0.8054	0.8310
<i>Timoshenko-Gudier usuli</i>	0.3404	0.5166	0.6536	0.7515	0.8102	0.8298


Termoelastik to'rtburchak plastinka masalasi. Quyidagi qonuniyat bo'yicha belgilangan harorat maydonida joylashgan har tomondan qisilgan to'rtburchakli plastinkaning termoelastik masalasi sonli yechilgan.

$$T = T_0 \sin \frac{\pi x}{l_1} \sin \frac{\pi y}{l_2}, \quad T_0 = 20^\circ \quad (31)$$


Termoelastik masala, quyidagi shakldagi xajmiy kuchlarga ega bo'lgan (21) tenglama bilan modellashtirish mumkin

$$X_1 = -\alpha(3\lambda + 2\mu) \frac{\partial T}{\partial x}, \quad X_2 = -\alpha(3\lambda + 2\mu) \frac{\partial T}{\partial y}, \quad (32)$$

(32) munosabatlarni hisobga olgan holda ushbu masalaga mos keluvchi chekli-ayirmali tenglamalar (23) bilan aniqlangan. Kuchlanish σ_{11} va haroratning taqsimotlari mos ravishda 2-3 grafiklarda ko'rsatilgan.



2-rasm. Haroratning taqsimlanishi



3-rasm. σ_{11} kuchlanish tenzorining taqsimlanishi

Termoplastik to'rtburchak plastinka masalasi. (31) harorat maydonida joylashgan ($l_1 \times l_2$) o'lchamdagi tomonlari bo'yicha mahkamlangan termoplastik to'rtburchak plastinkaning deformatsiyalanishi masalasi sonli yechilgan. Termoplastik masalani tavsiflovchi ikki o'lchovli model tenglamalarni, haroratni va $\varepsilon_u \geq \varepsilon_u^*$ shartni inobatga olgan holda, (21-22) tenglamalardan topish mumkin:

$$\begin{aligned} (\lambda + 2\mu) \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + (\lambda + \mu) \frac{\partial^2 v}{\partial x \partial y} + \mu \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} - \gamma \frac{\partial T}{\partial x} + X_1^* &= 0, \\ (\lambda + 2\mu) \frac{\partial^2 v}{\partial y^2} + (\lambda + \mu) \frac{\partial^2 u}{\partial x \partial y} + \mu \frac{\partial^2 v}{\partial x^2} - \gamma \frac{\partial T}{\partial y} + X_2^* &= 0, \end{aligned} \quad (33)$$

chegaraviy shartlar

$$u(x, y)|_{\Gamma} = 0, \quad v(x, y)|_{\Gamma} = 0. \quad (34)$$

bu yerda

$$X_1^* = -2(\mu - \mu')(1 - \frac{\varepsilon_u^*}{\varepsilon_u}) \left(\frac{2}{3} \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + \frac{1}{2} \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} + \frac{1}{6} \frac{\partial^2 v}{\partial x \partial y} \right), \quad X_2^* = -2(\mu - \mu')(1 - \frac{\varepsilon_u^*}{\varepsilon_u}) \left(\frac{2}{3} \frac{\partial^2 v}{\partial y^2} + \frac{1}{2} \frac{\partial^2 v}{\partial x^2} + \frac{1}{6} \frac{\partial^2 u}{\partial x \partial y} \right).$$

Tenglamalarning chekli-ayirmali analoglari (33-34) iterativ usulda quyidagi qiymatlarda yechilgan: $\lambda = 1.5$, $\mu = 0.75$, $l_1 = l_2 = 1$, $N_1 = N_2 = 10$, $\varepsilon_u^* = 0.9$.

2-jadvalda harorat maydonida to'rtburchakli plastinka uchun kuchlanishlarning sonli qiymatlari keltirilgan.

2-jadval


σ_{11} kuchlanish tenzori qiymatlari $\varepsilon = 0.0001$ da						
	$x=0$	$x=0.1$	$x=0.2$	$x=0.3$	$x=0.4$	$x=0.5$
$y=0$	0.0000	0.0000	0.0000	0.0000	0.0000	0.0000
$y=0.1$	0.00000	-4.2531	-4.3627	-4.5998	-4.7474	-4.7872
$y=0.2$	0.0000	-5.6151	-5.8489	-6.0390	-6.1866	-6.2422
$y=0.3$	0.0000	-6.6237	-7.0580	-7.3309	-7.5133	-7.5781
$y=0.4$	0.0000	-7.2974	-7.8363	-8.1835	-8.4038	-8.4799
$y=0.5$	0.0000	-7.5461	-8.1065	-8.4814	-8.7166	-8.7973

Plastik zonalar mahkamlangan termoplastik to'rtburchakning tomonlar atrofida paydo bo'ladi (4-rasm).


Termoplastik to'rtburchakli plastinkaning chegaralari kuchlardan ozod bo'lsa, ya'ni, chegaraviy shartlarning o'ng tomonlari nolga teng bo'lsa, plastik zonalar erkin chegaralar atrofida paydo bo'ladi va 5-rasmda ko'rsatilgan shaklni oladi. Kuchlanish σ_{11} qiymatlari 3-jadvalda ko'rsatilgan.

3-jadval

σ_{11} kuchlanish tenzorining qiymatlari $\varepsilon = 0.0001$ da						
	$x=0$	$x=0.1$	$x=0.2$	$x=0.3$	$x=0.4$	$x=0.5$
$y=0$	0.0000	0.0000	0.0000	0.0000	0.0000	0.0000
$y=0.1$	0.0000	-0.5638	-0.2500	-0.1004	-0.1487	-0.1565
$y=0.2$	0.0000	-1.4104	-1.4304	-1.4321	-1.4177	-1.4092
$y=0.3$	0.0000	-2.2160	-2.3921	-2.5969	-2.7419	-2.7931
$y=0.4$	0.0000	-2.6677	-3.0058	-3.3215	-3.5538	-3.6379
$y=0.5$	0.0000	-2.8057	-3.2134	-3.5659	-3.8271	-3.9220



4-rasm. Harorat maydonining (31) ta'siri ostida mahkamlangan to'rtburchakli plastinkada paydo bo'lgan plastik zona



5-rasm. Harorat maydoni ta'siridagi plastik zona

3.2 paragraf elastiklik nazariyasining chekli deformatsiyali chegaraviy masalalarni sonli yechishga bag'ishlangan. Sterjen, to'rtburchakli plastinka va parallelepipedlarni cho'zishga doir masalalar chekli deformatsiyalarda yechilgan.

Chekli deformatsiyalanish holatida bo'lgan sterjenni cho'zish masalasi ko'chishlarga nisbatan quyidagi nochiziqli tenglama bilan ifodalanadi

$$(\lambda + 2\mu)A(u)\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + X_1 = 0, \quad (35)$$

bu yerda

$$A(u) = 1 + 3\frac{\partial u}{\partial x} + \frac{3}{2}\left(\frac{\partial u}{\partial x}\right)^2.$$

O'zgarmlarga quyidagi qiymatlar berilgan $\lambda = 0.8$, $\mu = 0.5$, $l = 1$, $n = 10$, $S = 1$.

Oldingi masalalarga o'xshab, chekli-ayirmali tenglamalar tuzilgan va ketma-ket yaqinlashish usuli yordamida yechilgan. Masalani progonka usuli bilan ham yechilib natijalar olingan. Iteratsiya usuli va progonka usuli bilan olingan natijalar 4-jadvalda taqqoslangan. Sonli natijalarni taqqoslash va olingan natijalarni tahlil qilish olingan natijalarning to'g'riligini ko'rsatadi.

4-jadval

$u(x)$ ko'chish qiymatlarini solishtirish						
<i>Natijalar</i>	$x=0$	$x=0.1$	$x=0.2$	$x=0.3$	$x=0.4$	$x=0.5$
<i>Iteratsiya usuli</i>	0	0.0081	0.0136	0.0142	0.0092	0
<i>Progonka usuli</i>	0	0.0081	0.0136	0.0142	0.0091	0

